



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 31 - iyul

VI-64-149-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5633-sonli Farmonining tumandagi ijrosi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi mudirining axboroti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi va Prezident virtual qabulxonasiga 2023-yilning birinchi yarim yilligi davomida jami 4396 ta masalalar bo‘yicha murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, shundan 3340 ta yoki 84,5 foiz murojaatlar qanoatlantirilgan, 1743 ta yoki 43 foiz murojaatlar ijobiy yechimini topgan, 1552 ta murojaatlar huquqiy maslahat va ma’lumot berish orqali hal qilingan, 546 ta murojaatlarga tushuntirish berilgan, 145 ta murojaatlar ma’lum vaqt talab qilganligi sababli uzoq muddatli nazoratga olingan, 22 ta murojaat tugatilgan, 35 ta murojaat rad etilgan, 325 ta murojaatlar ko‘rib chiqish jarayonidagi murojaatlarni tashkil qilgan.

Shuningdek, 2023-yilning birinchi yarim yilligida davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi hamda Xalq qabulxonalariga Angor tumanida yashovchi fuqarolar tomonidan kelib tushgan murojaatlar jami 4396 tani tashkil qilib, o‘tgan yilga (2022-yilning shu davriga 5046 tani) nisbatan 650 taga kamaygan.

Tumanda yashovchi 139,6 ming aholidan, har 1000 ta aholiga nisbatan o‘rtacha kelib tushgan murojaatlar soni 19 tani tashkil etgan, 4396 ta murojaatlarning 2912 tasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga va 1484 tasi tuman Xalq qabulxonasiga kelib tushgan murojaatlarni tashkil qilgan.

01.07.2023-yil holatiga kelib tushgan 4396 ta murojaatlarning 2912 tasi yoki 75 foizi tumandagi sektor rahbarlari yoki tumandagi boshqa tegishli mas’ul tashkilot va korxonalarga murojaat qilinmasdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va Ishonch telefonlariga murojaat qilganligini ko‘rsatmoqda, bu esa o‘z-o‘zidan tumandagi mas’ullar tomonidan fuqarolarning murojaatlariga to‘laqonli e’tibor qaratilmayotganligi, murojaatlar to‘liq va sifatli o‘rganib chiqilmayotganligi, ayrim mas’ullar tomonidan murojaatlarga yuzaki qarab kelinayotganligi, murojaatlarni hal

etish, qanoatlantirish hamda ijobiy hal etish darajasi, Prezident Farmon va qarorlari ijrosi yuzasidan belgilab olingan chora-tadbirlar ham talab darajasida amalga oshirilmayotganligini ko'rsatmoqda.

Misol uchun murojaatlarni ijobiy hal etish darajasi 01.07.2023-yil holatiga Angor tumanida yashovchi aholidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan murojaatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 650 taga kamaygan bo'lsa-da, biroq murojaatlarni ijobiy hal qilish natijalariga qaraydigan bo'lsak, tumandagi tashkilot va idoralar tomonidan yetarlicha ishlar amalga oshirilmayotganligini ko'rish mumkin.

Murojaatlarni ijobiy hal etish darajasi 50 foizdan past bo'lgan ko'rsatkichlar tashkilotlar kesimida solishtirilganda: Angor tuman elektr tarmoqlari korxonasi 274 ta murojaatlardan, 127 tasi yoki 46,4 foizi ijobiy hal qilgan. Angor tuman Bandlikka ko'maklashish markazi tomonidan 209 ta murojaatlarning ijobiy yechimini topganlari 47 ta yoki 23 foizni tashkil qiladi. Angor tumani Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi tomonidan 170 ta murojaatlarning ijobiy yechimini topganlari 42 ta yoki 27,8 foizni tashkil qiladi. Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Surxondaryo viloyati Angor tuman bo'limi 35 ta murojaatlardan 12 tasi yoki 38,7 foizi ijobiy hal qilgan. Angor tuman prokuraturasi 73 ta murojaatlardan, 22 tasi yoki 31 foizi ijobiy hal qilgan. Angor tuman davlat soliq inspeksiyasi 60 ta murojaatlardan 18 tasi yoki 30 foizi ijobiy hal qilgan. Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati Angor tumani bo'limi 42 ta murojaatlardan 9 tasi yoki 22 foizi ijobiy hal qilgan. Angor tumani IIB Ijtimoiy profilaktika guruhi 36 ta murojaatlardan 5 tasi yoki 14 foizi ijobiy hal qilgan. Angor tumani xalq ta'limi bo'limi 35 ta murojaatlardan 15 tasi yoki 43 foizi ijobiy hal qilgan. AT Xalq bank Angor filiali 21 ta murojaatlardan, 10 tasi yoki 48 foizi ijobiy hal qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga Angor tumanida yashovchi fuqarolardan kelib tushgan murojaatlar sektorlar kesimida tahlil qilinganda, (jami 4396 ta murojaatlar bo'yicha) 1-sektor hududidagi aholidan jami 1078 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan 416 tasi ijobiy hal etilgan, 2-sektor hududidagi aholidan jami 1250 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan 510 tasi ijobiy hal etilgan, 3-sektor hududidagi aholidan jami 1115 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan 467 tasi ijobiy hal etilgan, 4-sektor hududidagi aholidan jami 953 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan 350 tasi ijobiy hal etilgan.

Murojaatlarning soni jihatidan yetakchilikni 2-sektor hududidan Navshahar MFY 398 ta murojaat bilan egallab turibdi. Shuningdek, 4-sektorga tegishli bo'lgan Navro'z (273 ta), O'zbekiston (236 ta), Navbahor (224 ta) va Sharq guli (220 ta) MFY'lari hamda 3-sektor hududidagi Yangi turmush MFY (160 ta), 2-sektor hududidagi Kattaqum (160 ta) MFY'larida tumandagi eng ko'p murojaatlar kelib tushgan. Yuqorida holatni inobatga olgan holda, sektorlar rahbarlari, a'zolari va boshqa mas'ullar ushbu mahallalardagi aholi muammolari va murojaatlariga alohida e'tibor qaratib, sayyor ommaviy qabullarni tashkil qilib, murojaatlarni qanoatlantirish va ijobiy

hal etish orqali murojaatlar sonini kamaytirishga erishish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri O‘.G‘afforovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5633-sonli Farmonining tumandagi ijrosi yuzasidan axborotini muhokama qilib, bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuning 6 va 24- moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5633-sonli Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi mudirining sektorlar va hududdagi tashkilotlar rahbarlari faoliyati, murojaatlar bilan ishlash holati yuzasidan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Murojaatlarni ijobiy hal etish darajasi eng past ko‘rsatkichni bergen Angor tuman elektr tarmoqlari korxonasi rahbari, Angor tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i, Budgetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Surxondaryo viloyati Angor tuman bo‘limi boshlig‘i, Angor tuman prokurori, Angor tuman davlat soliq inspeksiyasi rahbari, Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati Angor tumani bo‘limi boshlig‘i, Angor tuman IIB Ijtimoiy profilaktika guruhi rahbari, tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri, AT Xalq banki Angor filiali boshqaruvchisi ogohlantirilsin.

**3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga 2023-yilning birinchi yarim yilligida eng ko‘p ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha Elektr tarmoqlari korxonasi rahbari Sh.Shonazarov, Yoshlar ishlari agentligi Angor tuman bo‘limi rahbari Sh.Qaxxorov, Angor tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i U.Qosimov, Angor tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i B.Jo‘rayev, tuman Irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i Sh.Eshaliev, “BIO TEXNO EKO” MChJ rabari O.Rajapovlar:**

- o‘zlariga tegishli masalalar yuzasidan murojaatlar soni ortganligiga alohida e’tibor qaratib, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni belgilab, bu boradagi aholi muammolarini ijobiy hal etish maqsadida yo‘l xaritasi ishlab chiqib, tegishli tartibda hududiy va boshqa dasturlarga takliflar kiritish orqali hal etish choralarini ko‘rsin.

4. 01.07.2023 yil holatiga tumandagi **2-sektorga** qarashli bo‘lgan “Navshaxar” va “Kattaqum”, **4-sektor** “Navro‘z”, “O‘zbekiston”, “Navbahor” va “Sharq guli” MFYlarida hamda **3-sektor** “Yangi turmush” mahallalarida murojaatlar soni

oshganligini inobatga olib, sektorlar rahbarlari va a'zolari, mahalla mas'ullari, hokim yordamchilari hamda boshqa mas'ullar ushbu mahallalardagi aholi muammolari va murojaatlarining hal etilishiga alohida e'tibor qaratib, sayyor ommaviy qabullarni tashkil qilib, murojaatlarni qanoatlantirish va ijobjiy hal etish orqali murojaatlar sonini kamaytirish choralarini ko'rsin.

## **5. Sektor rahbarlari, tuman hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rnbosarlari, boshqa tashkilot va idora rahbarlari;**

- murojaatlar bilan ishslashda fuqarolarning murojaatlarini to'liq va sifatli o'rganib chiqilmayotganligi, murojaatlarga yuzaki qaralib kelinayotganligi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi hamda Xalq qabulxonalariga murojaatlar soni keskin oshib ketganligi sababli barcha murojaatlarni chuqur tahlil qilib, umumlashtirib, sektor va soha (tashkilot)lar kesimida murojaatlar o'rganilishini nazorat qilib, joyiga chiqqan holda, xususan eng ko'p murojaat kelib tushgan, muntazam murojaat qiluvchi fuqarolar, uzoq vaqtidan buyon hal etilmay kelinayotgan muammolar mavjud mahallalarda sayyor qabullar tashkil etib, sifatli to'laqonli o'rganilishini ta'minlash hamda murojaatlarni qanoatlantirish va ijobjiy hal etish darajasini oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilash;

- O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni ijrosiga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalarini orqali kelib tushgan murojaatlarni 15 kunlik muddatda va qo'shimcha tekshirish va muddat talab etiladigan murojaatlar esa 30 kun muddatdan kechiktirmasdan ko'rib chiqish;

- O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning 28-moddasi talablariga rioya etilishida, ya'ni murojaatlarni o'rganishda (oddiy murojaatlarni, tekshirish va qo'shimcha muddat talab etilmaydigan) murojaatlarni muddatlarini asossiz ravishda uzaytirishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilash;

- hududdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlab, bu boradagi ishlarni jonlantirib, hududlardagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning shart-sharoitlarini doimiy o'rganilishini ta'minlab, doimiy daromad manbaiga ega bo'lмаган va ehtiyojmand hamda kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar asosida kambag'allikdan chiqarish choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

## **6. Angor tumani sektor rahbarlariga:**

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.08.2017-yildagi PQ-3182-soni Qarori bilan tasdiqlangan "Tumanlar (shaharlar) va hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlarning ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi Nizomning 2-bobida "Sektorlarning asosiy vazifalari" belgilangan bo'lib, 1-bandida uy-joy kommunal va yo'l xo'jaligi, energiya, suv va issiqlik ta'minoti, transport

qatnovi, arxitektura, arzon uy-joylar qurish, hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, namunaviy mahalla va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini shakllantirish sohasidagi muammolarni aniqlash va hal etish bo‘yicha aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilasin.

7. Sektor rahbarlari ommaviy sayyor qabullar natijalarini mahalliy nashrlarda, ommaviy axborot vositalarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda to‘liq yoritilishini ta’minlasin.

8. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakuni bilan tegishli mansabдор shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

9. Tuman hokimligi Axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi (G.Jumayeva)ga tumanda investitsiya loyihalarini amalga oshirish sohasidagi ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Y.Xalimov) zimmasiga yuklatilsin.

11. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**